“Arxivshunoslikka kirish” mavzusida ilmiy seminar o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti Yosh olimlar kengashi tomonidan ilmiy seminarlar tashkil qilinmoqda. Shunday seminarlardan biri “Arxivshunoslikka kirish” mavzusida o’tkazildi. Mavzu yuzasidan tarix fanlari doktori, dotsent Muhayyo Isoqova chiqish qildi. Ma’ruzada arxivlarning paydo bo`lish tarixi, arxivlarning jamiyat hayotida tutgan o`rni hamda ahamiyati, shuningdek, arxivshunoslik fanining yuzaga kelish sabablari va rivojlanish omillari borasidagi qarashlar bilan tanishtirdi.

Shu bilan birga, O`zbekistonda joriy arxiv, O`zarxiv agentligini faoliyati, yechimini kutayotgan muammolar hamda tadqiqtotchilarning arxiv hujjatlari bilan ishlash madaniyati, malakasi borasida fikrlar bildirildi. Shuningdek, Arxivshunoslik fanining istiqbollari, soha doirasida yosh kadrlarni tayyorlash borasidagi maqsad va vazifalar bilan atroflicha tanishtirdi. Ushbu ma’ruza va unda ko’tarilgan masalalar arxiv hujjatlari bilan ishlayotgan va arxivshunoslik sohasida tadqiqot olib borayotgan yosh izlanuvchilar uchun o’ziga xos mahorat maktabi bo’ldi, deyish mumkin.